



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG‘I

2026 yil “13” iyul

223-son

Toshkent sh.

“Tibbiyot fidoyisi” respublika tanlovini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 9-noyabrdagi “Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida”gi PQ–336-son qarori ijrosini ta‘minlash, tibbiyot xodimlari kasbining nufuzini oshirish, tibbiy yordam sifati hamda samaradorligini oshirish, tibbiyot xodimlarini rag‘batlantirish, aholining sog‘liqni saqlash tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, shuningdek, sohaning eng munosib vakillarini e‘tirof etishning shaffof, xolis va ijtimoiy yo‘naltirilgan mexanizmlarini joriy etish maqsadida, **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

“Tibbiyot fidoyisi” respublika tanlovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi

1-ilovaga muvofiq;

Reyting ballarini hisoblash hamda “Tibbiyot fidoyisi” respublika tanlovi g‘oliblarini aniqlash tartibi **2-ilovaga** muvofiq;

“Tibbiyot fidoyisi” respublika tanlovini o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tarkibi **3-ilovaga** muvofiq;

“Tibbiyot fidoyisi” respublika tanlovini o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitaning faoliyati tartibi va vazifalari **4-ilovaga** muvofiq;

“Tibbiyot fidoyisi” respublika tanlovida ovoz berishda ishtirok etuvchi tibbiy assotsiatsiyalar va kasbiy hamjamiyatlar ro‘yxati **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki, “Tibbiyot fidoyisi” respublika tanlovi (keyingi o‘rinlarda – “Tanlov”) har yili o‘tkaziladi hamda yagona yillik hisob-kitob davri yakunlari bo‘yicha quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

har yili 1-noyabr holatiga ko‘ra baholash yakunlarini sarhisob qilish;

jamoatchilik fikri, tibbiy assotsiatsiyalar va kasbiy hamjamiyatlar fikri hamda Tanlovni o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mitaning (keyingi

o‘rinlarda – “Tashkiliy qo‘mita”) yakuniy xulosalari asosida nominatsiyalar bo‘yicha g‘oliblarni aniqlash.

3. Sog‘liqni saqlash vazirligi Tanlovning tashkilotchisi etib belgilansin.

4. Tashkiliy qo‘mitaga quyidagi vakolatlar berilsin:

Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq tadbirlarni muvofiqlashtirish;

Tanlov tartibotlarining ochiqligi, xolisligi va ijtimoiy ahamiyatini ta‘minlash;

Tanlovni o‘tkazish tartibi va g‘oliblarni aniqlash metodikasining bir xilda qo‘llanilishini nazorat qilish;

Tanlov davomida yuzaga keladigan bahsli va nizoli vaziyatlar bo‘yicha yakuniy qarorlar qabul qilish;

Tanlovning oraliq va yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish hamda tasdiqlash;

Tanlov mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

5. Tibbiyotni rivojlantirish jamg‘armasi direksiyasi (A.Xasanov) tomonidan Tanlov yakunlariga ko‘ra g‘oliblar Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan quyidagi tartibda bir martalik rag‘batlantirish bo‘yicha kuzatuv kengashiga taklif kirtsin:

tibbiyot muassasalari – 500 million so‘m;

tibbiyot xodimlari – 30 million so‘m.

6. Matbuot kotibi (F.Sanayev):

Tanlov jarayonlarini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritib borsin;

Tanlovni ommalashtirish va jamoatchilik qiziqishini oshirish maqsadida blogerlar va boshqa ommaviy axborot vositalari vakillari, jamoatchilik yetakchilari, professional hamjamiyat vakillari hamda boshqa manfaatdor shaxslar jalb etilishini ta‘minlasin.

7. “OVI Unicorn” MChJ Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan 2026-yil 12-mart kuni imzolangan hamkorlik memorandumini asosida Tanlovning texnik va tashkiliy operatori sifatida jalb etilsin.

8. “OVI Unicorn” MChJga (keyingi o‘rinlarda – “OVI platformasi”) quyidagi vazifalar yuklatilsin:

Tanlovning raqamli, xolis va shaffof tarzda tashkil etilishi hamda o‘tkazilishini ta‘minlovchi texnik mexanizmlarni joriy etish va qo‘llash;

OVI platformasi orqali Tanlov tartib-taomillarining texnik jihatdan amalga oshirilishini ta‘minlash;

Tanlov ishtirokchilarini belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish va identifikatsiya qilish;

shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya qilgan holda Tanlov doirasida foydalaniladigan ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash va himoya qilish;

reytinglarni avtomatlashtirilgan tarzda shakllantirish, reyting ballarini hisoblash hamda tasdiqlangan metodikaga muvofiq tahliliy materiallarni tayyorlash;

tizimdagi barcha harakatlarning raqamli kuzatuvini, hisob-kitoblar tarixining saqlanishini, hisob-kitob davrlari natijalarining qayd etilishini va ularni keyinchalik tekshirish imkoniyatini ta'minlash;

mazkur buyruq hamda Tashkiliy qo'mita qarorlari bilan belgilangan reyting va Tanlov natijalarining e'lon qilinishini texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

9. Belgilansinki, OVI platformasi tanlov g'oliblarini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilishga hamda Tanlovning yakuniy natijalariga ta'sir ko'rsatishga haqli emas.

10. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari, shuningdek, respublika tasarrufidagi tibbiyot muassasalari Tanlovda ishtirok etish uchun tibbiyot muassasasi hamda tibbiyot xodimlarini OVI platformasida ro'yxatdan o'tish tartibi va imkoniyatlari to'g'risida xabardor qilsin.

11. Sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi barcha tibbiyot tashkilotlari Tanlovni tashkil etish va o'tkazish, shu jumladan, axborot tarqatish, tashkiliy qo'llab-quvvatlash hamda Tanlov bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etish masalalarida Tashkiliy qo'mitaga ko'maklashsin.

12. Mazkur buyruq ijrosining nazorati vazir o'rinbosari A.Xudaykulov zimmasiga yuklansin.

Vazir



E. Adilov

YPR5183

YPR5183

YPR5183

YPR5183

YPR5183

**“Tibbiyot fidoyisi” respublika tanlovini
tashkil etish va o'tkazish
TARTIBI**

I-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib “Tibbiyot fidoyisi” respublika tanlovining (keyingi o'rinlarda – Tanlov) maqsad va vazifalari, tamoyillari, uni tashkil etish va o'tkazish, ishtirok etish tartibi hamda Tanlov Tashkiliy qo'mitasining vazifalarini belgilaydi.

2. Tanlov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 9-noyabrdagi “Tibbiyot va farmatsevtika xodimlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–336-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida o'tkaziladi.

3. Tanlov shaffoflik, raqamli texnologiyalar va xolis baholash tamoyillari asosida Sog'liqni saqlash tizimining eng yaxshi vakillarni aniqlash, ularning xizmatlarini munosib e'tirof etish hamda jamoatchilik oldida nufuzini oshirish maqsadida har yili o'tkaziladi.

Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan har yili quyidagi nominatsiyalar bo'yicha Tanlov o'tkaziladi:

- (a) “Eng yaxshi respublika shifoxonasi rahbari”;
- “Eng yaxshi hududiy sog'liqni saqlash organi rahbari”;
- “Eng yaxshi respublika yosh shifokori” (31 yoshgacha).

(b) har bir hududda:

- “Eng yaxshi tuman (shahar) sog'liqni saqlash organi rahbari”;
- “Eng yaxshi oilaviy poliklinika rahbari”;
- “Eng yaxshi tuman (shahar) shifokori”;
- “Eng yaxshi tuman (shahar) o'rta tibbiyot xodimi”;
- “Eng yaxshi oilaviy poliklinika”;
- “Eng yaxshi tuman (shahar) shifoxonasi”;
- “Eng yaxshi hududiy shifoxona”;

Tanlovning Tashkiliy qo'mitasi qarori bilan homiylik mablag'lari hisobidan qo'shimcha nominatsiyalar.

Tashkiliy operator (“OVI Unicorn” MChJ “OVI platformasi”) har oyda mustaqil ravishda o'z hisobidan yoki homiylar hisobidan oylik tanlovlarni o'tkazishi mumkin.

4. Tanlov quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

shifokorlar, o'rta tibbiyot xodimlari hamda sog'liqni saqlash tizimining boshqa xodimlarining kasbiy nufuzini oshirish;

tibbiyot xodimlariga nisbatan hurmat, e'tirof etish va minnatdorchilik bildirishning barqaror madaniyatini shakllantirish;

obyektiv raqamli ma'lumotlar asosida eng yaxshi tibbiyot xodimlari, tibbiyot tashkilotlari va rahbarlarni aniqlash;

aholining sog'liqni saqlash tizimiga ishonchini oshirish;

tibbiy yordam sifati, kasbiy mas'uliyat, tibbiyot tashkilotlarining bemorga yo'naltirilganligi va ochiqqligini rag'batlantirish;

sog'liqni saqlash sohasida e'tirof etishning shaffof va jamoatchilikka yo'naltirilgan mexanizmlarini joriy etish;

bemor va sog'liqni saqlash tizimi o'rtasidagi qayta aloqaning zamonaviy raqamli infratuzilmasini rivojlantirishga ko'maklashish.

5. Tanlov jamoatchilik, tibbiyot tashkilotlari xodimlari hamda "OVI platformasi" foydalanuvchilari tomonidan, belgilangan tartib-tamoyillar doirasida qoldiriladigan baholar, shuningdek, mazkur Tartib hamda Tanlovning reyting ballarini hisoblash va g'oliblarini aniqlash tartibida nazarda tutilgan ma'lumotlar asosida o'tkaziladi.

6. Tanlov O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab mazkur Tartibga, shuningdek, Tashkiliy qo'mitaning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlariga muvofiq o'tkaziladi.

7. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Tanlov – Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ushbu Tartibga muvofiq o'tkaziladigan "Tibbiyot fidoyisi" respublika tanlovi;

Tanlov operatori – Tanlovning texnik va tashkiliy jihatdan amalga oshirilishini ta'minlaydigan "OVI Unicorn" MChJ "OVI platformasi";

Tashkiliy qo'mita – Tanlovni o'tkazish bilan bog'liq barcha tashkiliy va boshqaruv jarayonlarini amalga oshiruvchi, jumladan, ma'lumotlarni tahlil qilish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni ko'rib chiqish va bartaraf etish hamda yakuniy natijalarni shakllantirishni ta'minlovchi kollegial vakolatli organ;

Tanlov ishtirokchisi – Tanlov nominatsiyalari bo'yicha talablarga mos bo'lgan davlat tibbiyot tashkilotlari hamda sog'liqni saqlash tizimining rahbar va tibbiyot xodimlari;

Reyting – mezonlar bo'yicha Tanlov ishtirokchilarini qiyosiy baholashning natijalari;

Reyting bali – mezonlar bo'yicha Tanlov ishtirokchilarini qiyosiy baholash natijalarining raqamli ko'rsatkichi;

Hisoblash davri – yakunlariga ko'ra reyting ballari hisoblanadigan hamda Tanlov natijalari belgilanadigan muayyan vaqt oralig'i;

Oylik natijalar – tegishli taqvim oyi yakunlari bo'yicha shakllantiriladigan Tanlovning oraliq reyting ballari;

Yillik natijalar – ushbu Tartib doirasida Tashkiliy qo'mita qarori bilan belgilangan taqvim yili yoki boshqa davr yakunlari bo'yicha shakllantiriladigan Tanlovning yakuniy natijalari;

Verifikatsiya – Tanlov ishtirokchisi, uning maqomi, ish joyi, mutaxassisligi, hududi, tibbiyot tashkilotida faoliyat yuritayotganligini va Tanlovda ishtirok etish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarning haqqoniyligini tasdiqlash tartib-tamoyillari majmui;

Platforma foydalanuvchisi – belgilangan tartibda "OVI platformasida" ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxs;

Baho – ushbu Tartib va mazkur buyruqning 2-ilovasiga muvofiq Tanlov doirasida hisobga olinadigan, platforma foydalanuvchisining tibbiyot xodimi yoki tibbiyot tashkiloti to‘g‘risidagi fikrining raqamli ifodasi.

II-bob. Tanlovni o‘tkazishning asosiy tamoyillari

8. Tanlov quyidagi tamoyillar asosida o‘tkaziladi:

qonuniylik, xolislik, shaffoflik;

ishtirok etish uchun teng sharoitlar;

foydalaniladigan ma’lumotlarning ishonchliligi va tekshirilishi;

raqamli kuzatish imkoniyati;

shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik;

belgilangan tartibdan chetga chiqqan holda natijalarni qo‘lda o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmasligi;

tanlov natijalariga ta’sir o‘tkazadigan, soxta ovoz yig‘ish va boshqa g‘irrom ta’sir shakllaridan himoyani ta’minlash.

9. Tanlov nominatsiyalari bo‘yicha nomzodlarning reyting ballari faqat “OVI Unicorn” MChJ Raqamli tibbiy platformasi (keyingi o‘rinlarda – OVI platformasi) orqali aniqlanadi.

10. Tanlov doirasida qo‘llaniladigan ma’lumotlar OVI platformasida shakllantiriladi, saqlanadi, nomzodlar hamda tanlovda ishtirok etuvchi muassasalarning vakolatli vakillari tomonidan yangilab boriladi.

III-bob. Tanlov tashkilotchisi, tanlov operatori va Tashkiliy qo‘mita

11. Sog‘liqni saqlash vazirligi Tanlovning tashkilotchisi hisoblanadi.

12. Sog‘liqni saqlash vazirligi:

Tanlovni tashkil etish va o‘tkazishga umumiy rahbarlik qiladi;

Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish tartibini tasdiqlaydi;

reyting ballarini hisoblash hamda g‘oliblarni aniqlash tartibini tasdiqlaydi;

Tashkiliy qo‘mita tarkibini tasdiqlaydi;

Tanlovning institutsional maqomini ta’minlaydi;

Sog‘liqni saqlash vazirligining tarkibiy bo‘linmalari, sog‘liqni saqlash hududiy boshqaruv organlari va idoraviy mansub tashkilotlarning Tanlovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishdagi ishtirokini muvofiqlashtiradi;

Tanlovni o‘tkazish va uning natijalarini rasman e’lon qilish uchun tashkiliy sharoitlarni yaratadi.

13. OVI platformasi Tanlov operatori hisoblanadi.

14. Tanlov operatori:

Tanlovning texnik jihatdan amalga oshirilishini ta’minlaydi;

ishtirokchilarni belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazadi va tekshiradi (verifikatsiya qiladi);

Tanlov doirasida foydalaniladigan ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish, ularni saqlash va himoya qilishni ta'minlaydi;

reytinglarni avtomatlashtirilgan tarzda shakllantiradi va tahliliy materiallarni tayyorlaydi;

Tanlovni o'tkazish bilan bog'liq harakatlarning tizimda raqamli qayd etilishini ta'minlaydi;

nojo'ya harakatlar va Tanlov natijalariga noqonuniy ta'sir ko'rsatishning boshqa shakllarining oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yish bo'yicha texnik mexanizmlarni joriy etadi;

Tashkiliy qo'mita qarorlari va tanlov natijalarini ushbu Tartib va Tashkiliy qo'mita qarorlarida belgilangan tartibda e'lon qilinishini ta'minlaydi.

15. Tanlov operatori g'oliblarni tasdiqlash yuzasidan qaror qabul qilish vakolatiga ega emas, shuningdek, tasdiqlangan uslubiyatda nazarda tutilgan avtomatlashtirilgan hisob-kitoblardan tashqari tanlov natijalariga o'zgartirish kiritishi mumkin emas hamda Tashkiliy qo'mitaning yakuniy qarorlariga har qanday shaklda ta'sir ko'rsatmaydi.

16. Tanlovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishni muvofiqlashtirish, munozarali holatlarni ko'rib chiqish hamda yakuniy natijalarni tasdiqlash Tashkiliy qo'mita tomonidan amalga oshiriladi.

17. Tashkiliy qo'mita o'z faoliyatini mazkur Tartibga muvofiq amalga oshiradi.

IV-bob. Tanlovni o'tkazish bosqichlari va davriyligi

18. Tanlov yagona yillik hisob-kitob davri asosida o'tkaziladi. Tanlov g'oliblari jamoatchilik fikri, kasbiy hamjamiyat (tibbiy assotsiatsiyalar) fikri va Sog'liqni saqlash vazirligi fikrini hisobga olgan holda uch komponentli tartibda, faqat yillik hisob-kitob davri yakunlari bo'yicha aniqlanadi.

19. OVI platformasi orqali ushbu Tartibda belgilangan nominatsiyalar bo'yicha ovoz berish jarayoni har yili 31-oktabr kuni to'xtatiladi. OVI platformasi har yili 1-noyabr holatiga ko'ra yillik hisob-kitob davri yakunlarini Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etadi. Sog'liqni saqlash vazirligi, tegishli tibbiy assotsiatsiyalar va Tashkiliy qo'mita tomonidan amalga oshiriladigan keyingi taqdim etish, baholash va tasdiqlash tartib-tamoyillari Reyting ballarini hisoblash va Tanlov g'oliblarini aniqlash tartibiga muvofiq amalga oshiriladi. Keyingi ish yili uchun tanlov 1-noyabrda boshlanadi.

V-bob. Tanlov ishtirokchilari

20. Quyidagilar Tanlov ishtirokchilari bo'lishi mumkin:

faoliyat yurituvchi shifokorlar;

o'rta tibbiyot xodimlari;

davlat tibbiyot tashkilotlari;

sog'liqni saqlash tizimi rahbar xodimlari;

mazkur Tartib va Tashkiliy qo'mitaning qarorlariga muvofiq qo'shimcha nominatsiyalar ishtirokchilari.

21. Tanlovda ishtirok etish Sog'liqni saqlash vazirligi va Tashkiliy qo'mita bilan kelishgan holda Tanlov operatori tomonidan belgilangan ro'yxatdan o'tish, verifikatsiya va ruxsat berish shartlariga rioya qilingan taqdirda amalga oshiriladi.

22. Tanlovda ishtirok etish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlar, jumladan, ishtirokchining shaxsi, kasbiy maqomi, mutaxassisligi, tibbiyot tashkiloti, hududiy mansubligi va ishtirok etish toifasini to'g'ri aniqlash uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar tasdiqlanganidan so'ng Tanlov ishtirokchisi tegishli reytingga kiritiladi.

23. Ishtirokchi:

Tanlovda ishtirok etish uchun OVI platformasiga haqqoniy ma'lumotlarni kiritishi, Tanlov qoidalariga rioya qilishi, Tanlov natijalarini soxtalashtirishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirmasligi, Tashkiliy qo'mitaning qarorlarini qonunchilik talablariga zid bo'lgan usullar bilan o'zgartirishga harakat qilmasligi lozim;

Tanlov qoidalari to'g'risida ma'lumot olish, ishtirok etish shartlari bilan tanishish, OVI platformasida mavjud bo'lgan qismida o'z ishtiroki holati va natijalarini kuzatib borish, Tanlov operatori va Tashkiliy qo'mita tomonidan belgilangan tartibda Tanlovda ishtirok etish bilan bog'liq masalalar yuzasidan murojaat qilish, o'zining huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan ushbu Tartib hamda qonunchilikda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga egadir.

VI-bob. Tanlov nominatsiyalari

24. Tanlov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 9-noyabrdagi PQ-336-sonli qarorida nazarda tutilgan nominatsiyalar, shuningdek, belgilangan tartibda tasdiqlangan qo'shimcha nominatsiyalar bo'yicha o'tkaziladi.

25. Tanlov nominatsiyalari respublika va hududiy darajadagi, jumladan, tibbiyot tashkilotlari rahbarlari, sog'liqni saqlash tizimi rahbar xodimlari, shifokorlar, o'rta tibbiyot xodimlari, davlat tibbiyot tashkilotlari o'rtasidagi nominatsiyalarni o'z ichiga oladi.

26. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 9-noyabrdagi PQ-336-son qarorida nazarda tutilgan nominatsiyalarning o'rnini bosmasa, Tanlovning maqsad va vazifalariga mos bo'lgan, obyektiv raqamli baholash imkoniyati bilan ta'minlangan qo'shimcha nominatsiyalar Tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

27. Nominatsiyalar ro'yxati, har bir nominatsiya bo'yicha g'oliblar soni hamda tanlov mezonlarini tegishli hisobot davri boshlanishidan oldin tasdiqlanishi va e'lon qilinishi lozim.

VII-bob. Ishtirok etishni tashkil etish va OVI platformasi

28. Tanlov OVI platformasida foydalanuvchilar, tibbiyot xodimlari va tibbiyot tashkilotlarining mazkur Tartibda nazarda tutilgan jarayonlarda ishtirokini ta'minlaydi va raqamli yechimlar orqali amalga oshiriladi.

29. OVI platformasida quyidagilar ta'minlanadi:

tibbiyot xodimlarini ro'yxatdan o'tkazish;

ishtirokchi profilini to'ldirish va yuritish;

kasbiy va tashkiliy ma'lumotlarni tasdiqlash;

profilni moderatsiya qilish, belgilangan tartib-taomillardan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng ishtirokchini reytingga avtomatik tarzda kiritish;

reyting, baholar soni va boshqa ko'rsatkichlarni aks ettirish.

VIII-bob. Tanlov natijalarini shakllantirish tartibi

30. Tanlov g'oliblari reyting ballarini hisoblash va Tanlov g'oliblarini aniqlash tartibiga muvofiq, jamoatchilik fikri, kasbiy hamjamiyat (tibbiy assotsiatsiyalar) fikri hamda Tanlov Tashkiliy qo'mitasining yakuniy xulosalarini hisobga olgan holda hisoblangan yakuniy reyting ballari asosida, faqat yillik hisob-kitob davri yakunlari bo'yicha aniqlanadi.

31. Jamoatchilik fikri orqali shakllangan reytinglar OVI platformasida avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshiriladi.

32. Tanlov maqsadlarida quyidagilar shakllantirilishi mumkin:

tibbiyot xodimlari reytinglari;

tibbiyot tashkilotlari reytinglari;

rahbarlar reytinglari;

hududiy reytinglar;

respublika reytinglari;

tasdiqlangan nominatsiyalar;

Mazkur tartibda nazarda tutilgan boshqa reytinglar.

33. Yillik hisob-kitob davri yakunlari tegishli davr yakuni bilan qayd etib boriladi.

34. Yillik hisob-kitob davri natijalari qayd etilgandan so'ng tegishli davr natijalarini shakllantirish uchun foydalanilgan qiymatlar OVI platformasida saqlanadi, hisobot davri g'oliblari alohida qayd etiladi, foydalanuvchilarning keyingi baholari va harakatlari tegishli davrning e'lon qilingan natijalariga ta'sir qilmaydi.

35. Natijalarni qayd etish, saqlash va keyinchalik tekshirish Tanlov operatori tomonidan ta'minlanadi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi va Tashkiliy qo'mita tomonidan nazorat qilish imkoniyati yaratiladi.

36. Avtomatlashtirilgan hisob-kitob natijalari ko'rib chiqish uchun Tashkiliy qo'mitaga taqdim etiladi.

37. Faqat Tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlangan natijalar Tanlovning rasmiy natijalari hisoblanadi.

YPR5183

YPR5183

YPR5183

YPR5183

YPR

**Reyting ballarini hisoblash va "Tibbiyot fidoyisi"
respublika tanlovi g'oliblarini aniqlash
TARTIBI**

I-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu reyting ballarini hisoblash va "Tibbiyot fidoyisi" respublika tanlovi g'oliblarini aniqlash tartibi (keyingi o'rinlarda – Tartib) quyidagilarni belgilaydi:

reyting ballarini shakllantirish manbalari;

Tanlov doirasida foydalaniladigan baholar va boshqa ma'lumotlarni hisobga olish tartibi;

ishtirokchilarning toifalari bo'yicha reyting ballarini hisoblash qoidalari;

reytinglarni shakllantirish tartibi;

yillik g'oliblarni aniqlash tartibi;

yakuniy reyting balini jamoatchilik fikri, kasbiy hamjamiyatlar (tibbiy assotsiatsiyalar) fikri hamda Tanlov Tashkiliy qo'mitasining yakuniy xulosalarini hisobga olgan holda uch komponentli tartibda shakllantirish;

ayrim ma'lumotlarni hisob-kitobdan chiqarish asoslari va tartibi;

tanlov natijalarining tekshirilishi, shaffofligi va ishonchliligiga qo'yiladigan talablar.

2. Mazkur Tartibga o'zgartirish va qo'shimchalar Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i bilan kiritiladi.

3. Tartib quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

natijalarning xolisligi va taqqoslanishi;

ishtirokchilarni baholashda yagona yondashuvlar;

hisob-kitoblarning shaffofligi;

ma'lumotlarga avtomatlashtirilgan ishlov berish;

raqamli kuzatish imkoniyati;

kamsitishga yo'l qo'ymaslik;

shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish;

yakuniy natijalarni belgilangan tartibdan tashqari qo'lda o'zgartirishga yo'l qo'ymaslik;

reytinglarni manipulyatsiya qilish va nohalol ta'sir ko'rsatishning boshqa shakllariga qarshi kurashish.

4. Ushbu Tartib maqsadlari uchun Tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibida nazarda tutilgan tushunchalardan foydalaniladi.

II-bob. Reyting ballarini shakllantirish manbalari

5. Tanlov ishtirokchilari quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

a) Shifokorlar:

tibbiy xizmat sifati;

davolash samaradorligi;

bemorga munosabat;

bemorga axborot bera olish darajasi;

bemorning shifokorni boshqalarga tavsiya etish darajasi.

b) O'rta tibbiyot xodimlari:

muolajalar bajarilishining sifati;

bemorga nisbatan e'tibor va g'amxo'rlik;

munosabat va xushmuomalalik;

bemorga muolajalar haqida axborot va tushuntirish berish darajasi;

bemorning o'rta tibbiyot xodimini boshqalarga tavsiya etish darajasi.

d) Tibbiyot muassasasi:

tibbiy xizmatlar sifati;

bino va xonalar holati;

jihozlanish va dori-darmonlar bilan ta'minlanganlik;

tibbiy xodimlarning munosabati, malaka darajasi;

muassasada bemorlarga yaratilgan qulaylik darajasi;

kutish vaqti.

Tanlov ishtirokchilarining reyting ballari "OVI Unicorn" MChJ Raqamli tibbiy platformasi (keyingi o'rinlarda – OVI platformasi) va u bilan bog'liq bo'lgan tanlovni amalga oshirish uchun foydalaniladigan raqamli yechimlar doirasida olingan baholar va ko'rsatkichlar asosida shakllantiriladi.

6. Reyting ballarini shakllantirishda quyidagi ma'lumot manbalaridan foydalaniladi:

OVI platformasi orqali amalga oshirilgan tashriflardan so'ng foydalanuvchilar tomonidan qo'yilgan baholar;

Tanlov qoidalarida ruxsat etilgan hollarda OVI platformasi orqali tashrif buyurmasdan ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar tomonidan qo'yilgan oylik baholar;

davlat tibbiyot tashkilotlarining baholari;

tibbiyot xodimlari, sog'liqni saqlash tizimi rahbar xodimlari bo'yicha umumlashtirilgan ko'rsatkichlar;

ushbu Tartibda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hamda Tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibiga zid bo'lmagan boshqa ko'rsatkichlar.

7. Tanlov doirasida faqat belgilangan tartibda olingan, texnik va mantiqiy tekshiruvlardan o'tkazilgan ma'lumotlar hisobga olinadi.

8. Barcha baholar jamlangan holda hisobga olinadi. Ma'lumotlardan foydalanish O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

III-bob. Baholarni hisobga olishning umumiy qoidalari

9. Tanlov maqsadlari uchun Tanlov ishtirokchilarining bahosi platforma foydalanuvchisi tomonidan ko'rsatilgan tibbiy yordam sifatining belgilangan mezonlari bo'yicha shakllantiriladi.

10. Tanlov ishtirokchilari haqidagi bitta fikr-mulohaza (taqriz)ning bahosi belgilangan baholash mezonlari bo'yicha o'rtacha arifmetik qiymat sifatida hisoblanadi.

11. Tanlov ishtirokchilarining bahosi har bir mezon bo'yicha 1 dan 5 ballgacha bo'lgan shkala bo'yicha qo'yiladi.

12. Tanlov ishtirokchilari to'g'risidagi bitta fikr-mulohaza (taqriz)ning yakuniy bahosi ushbu fikr-mulohaza (taqriz) tarkibiga kiruvchi barcha mezonlarning o'rtacha arifmetik qiymati sifatida aniqlanadi.

13. Davlat tibbiyot tashkilotini baholash OVI platformasi foydalanuvchisi tomonidan baholashning belgilangan mezonlari bo'yicha shakllantiriladi.

14. Davlat tibbiyot tashkiloti to'g'risidagi bitta fikr-mulohaza (taqriz)ning bahosi tegishli fikr-mulohaza (taqriz) tarkibiga kiruvchi barcha mezonlar bo'yicha o'rtacha arifmetik qiymatlar sifatida aniqlanadi.

15. Tanlov maqsadlari uchun baholash jarayonida bildirilgan minnatdorchiliklar, sharhlar va boshqa matnli fikr-mulohazalar alohida reyting ko'rsatkichi sifatida hisobga olinmaydi. Ular ommaviy tan olish va Tanlovni axborot bilan ta'minlash elementi sifatida qo'llaniladi.

16. Reyting ballarini hisoblashda faqat mazkur Tartibga muvofiq hisobga olishga ruxsat etilgan faol baholar kiritiladi.

IV-bob. Hisobga qabul qilinadigan baholash turlari

17. Tanlov ishtirokchilari uchun quyidagi baholash turlari hisobga olinadi:
OVI platformasi orqali tashrif yakunlangandan so'ng tasdiqlangan baholashlar;
ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchi tomonidan belgilangan limit doirasida qoldiriladigan OVI platformasi orqali bevosita tashrifsiz oylik baholashlar.

18. Tashrifdan keyin tasdiqlangan baho deb:

tanlov ishtirokchisiga yoki tibbiyot xodimiga OVI platformasi orqali yozilgan;

tibbiyot xodimiga bevosita murojaat qilgan yoki tashrif buyurgan;

OVI platformasida tashrif yakunlagan;

tashrif yakunlari bo'yicha belgilangan tartibda baho qoldirish huquqini olgan foydalanuvchi tomonidan qoldirilgan baho tan olinadi.

19. Tasdiqlangan telefon raqamiga ega bo'lgan ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchi, bir taqvim oy davomida ko'pi bilan bir marta aynan bir nafar Tanlov ishtirokchisiga baholarni qoldirishga haqli bo'lgan baholash tashrifsiz har oylik baholash deb e'tirof etiladi.

20. OVI platformasi orqali amalga oshirilgan har bir yangi tashrif yangi baho qoldirish huquqini beradi.

21. Bir vaqtning o'zida ushbu Tartib talablariga javob bergan quyidagi baholarni hisobga olishga yo'l qo'yiladi:

yakunlangan tashriflardan keyingi baholar;

tashrifsiz oylik baholar;

tibbiy tashkilotlarning baholari, agar ular mazkur Tartib talablariga muvofiq shakllantirilgan bo'lsa.

V-bob. Reyting balini uch komponentli tartibda shakllantirish

22. Mazkur bobda Tanlov doirasida shifokorlar, o'rta tibbiyot xodimlari, davlat tibbiyot tashkilotlari va rahbar xodimlarning yakuniy reyting balini (keyingi o'rinlarda – Yakuniy ball) shakllantirishning uch komponentli tartibi belgilanadi.

23. Yakuniy ball quyidagi uch komponent asosida, ularning belgilangan ulushlariga muvofiq shakllantiriladi:

jamoatchilik fikri komponenti – 60 foiz (0,6);

kasbiy hamjamiyat (tibbiy assotsiatsiyalar) fikri komponenti – 30 foiz (0,3);

Sog'liqni saqlash vazirligi bali komponenti – 10 foiz (0,1).

24. Yakuniy ball quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

Yakuniy ball = $0,6 \times \text{Jamoatchilik fikri bali} + 0,3 \times \text{Assotsiatsiya bali} + 0,1 \times \text{vazirlik bali}$.

25. Ushbu Tartib maqsadlari uchun quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

Jamoatchilik fikri bali – OVI platformasi orqali ushbu Tartibning III–X boblarida belgilangan tartibda shakllantirilgan, tegishli hisob-kitob davri uchun aniqlangan oʻrtacha reyting bali (100 ballik shkalaga keltirilgan holda);

Qisqa roʻyxat (shortlist) – tegishli nominatsiya va daraja (hududiy yoki respublika) boʻyicha Jamoatchilik fikri balli yuqori boʻlgan va ishtirok etish uchun minimal chegarani bajargan ishtirokchilarning Tashkiliy qoʻmita tomonidan belgilangan sondagi (kamida 5, koʻpi bilan 15 ta) roʻyxati;

Assotsiatsiya bali – ushbu Tartibning 5-ilovasida tasdiqlangan roʻyxat asosida tegishli tibbiy assotsiatsiya yoki kasbiy hamjamiyat tomonidan Qisqa roʻyxatdagi har bir ishtirokchiga nisbatan 1 dan 100 ballgacha shkala boʻyicha qoʻyilgan baho;

Vazirlik bali – Sogʻliqni saqlash vazirligining tegishli boʻlinmasi (hududiy sogʻliqni saqlash boshqarmasi yoki markaziy apparat) tomonidan Qisqa roʻyxatdagi har bir ishtirokchiga nisbatan 1 dan 100 ballgacha shkala boʻyicha qoʻyilgan baho.

26. Yakuniy ball faqat Qisqa roʻyxatga kiritilgan ishtirokchilar uchun shakllantiriladi. Qisqa roʻyxatga kiritilmagan ishtirokchilar tegishli davr gʻolibini aniqlashda ishtirok etmaydi, biroq ularning Jamoatchilik fikri balli reytingda va keyingi davrlarda hisobga olinishi uchun saqlanadi.

27. Yakuniy ball shakllantirilishi quyidagi izchillikda amalga oshiriladi:

OVI platformasi tegishli hisob-kitob davri uchun Jamoatchilik fikri ballini hisoblaydi, har bir nominatsiya va daraja boʻyicha Qisqa roʻyxatni shakllantiradi va uni Sogʻliqni saqlash vazirligiga taqdim etadi;

Sogʻliqni saqlash vazirligi tegishli boʻlinmasi orqali Qisqa roʻyxatdagi ishtirokchilarni koʻrib chiqadi va Vazirlik ballini protokol bilan rasmiylashtiradi;

Sogʻliqni saqlash vazirligi xuddi shu Qisqa roʻyxatni ushbu Tartibning 5-ilovasiga muvofiq tegishli tibbiy assotsiatsiyaga yuboradi;

Tibbiy assotsiatsiya Qisqa roʻyxatdagi ishtirokchilarni koʻrib chiqadi va Assotsiatsiya ballini qaror yoki protokol bilan rasmiylashtirib, Sogʻliqni saqlash vazirligiga qaytaradi;

Sogʻliqni saqlash vazirligi uch komponentni ushbu Tartibning 24-bandida nazarda tutilgan formula boʻyicha jamlaydi va Yakuniy ballarni tasdiqlash uchun Tashkiliy qoʻmitaga taqdim etadi.

28. Hududiy nominatsiyalar boʻyicha Vazirlik bali tegishli hududiy sogʻliqni saqlash boshqarmasi (Qoraqalpogʻiston Respublikasi sogʻliqni saqlash vazirligi, viloyat yoki Toshkent shahar sogʻliqni saqlash boshqarmasi) tomonidan, respublika va bosh milliy nominatsiyalar boʻyicha Sogʻliqni saqlash vazirligi markaziy apparatining tegishli tarkibiy boʻlinmasi tomonidan shakllantiriladi.

29. Assotsiatsiya bali faqat ushbu Tartibning 5-ilovasida koʻrsatilgan, tegishli nominatsiya yoki mutaxassislik boʻyicha vakolatli deb tasdiqlangan tibbiy assotsiatsiya tomonidan shakllantirilishi mumkin.

30. Vazirlik bali va Assotsiatsiya bali OVI platformasi orqali emas, balki qog‘oz yoki elektron hujjat shaklidagi qaror, xulosa yoki baholash varaqasi ko‘rinishida rasmiylashtiriladi.

31. Sog‘liqni saqlash vazirligi va tegishli assotsiatsiya tomonidan baho qo‘yilgan har bir holat bo‘yicha quyidagilar saqlanishi shart:

baho qo‘yilgan sana;

bahoni qabul qilgan organ yoki shaxslar tarkibi;

rasmiylashtirilgan qaror yoki protokol nusxasi.

32. Agar tegishli assotsiatsiya yoki Sog‘liqni saqlash vazirligi bo‘linmasi ushbu Tartibning 27-bandida nazarda tutilgan muddatlarda Tashkiliy qo‘mita tomonidan belgilangan ko‘rsatkichlarni taqdim etmasa, Tashkiliy qo‘mita taqdim etilmagan komponent ulushini qolgan taqdim etilgan komponentlar orasida ularning nisbiy ulushlariga proporsional ravishda qayta taqsimlashga haqli.

33. Ushbu Tartibning 32-bandida nazarda tutilgan holatlar va ular bo‘yicha qabul qilingan qarorlar Tashkiliy qo‘mita bayonnomasida qayd etiladi.

34. Yakuniy ballar teng bo‘lganda, ushbu Tartibning V–VII boblarida tegishli ishtirokchi toifasi uchun nazarda tutilgan tie-break qoidalari, jumladan Jamoatchilik fikri bali bo‘yicha ustunlik mezonlari qo‘llaniladi.

35. Ushbu bobda nazarda tutilgan uch komponentli tartib Tanlovning barcha nominatsiyalari – shifokorlar, o‘rta tibbiyot xodimlari, davlat tibbiyot tashkilotlari va rahbar xodimlar bo‘yicha yillik g‘oliblarni aniqlashda qo‘llaniladi, agar aniq nominatsiya uchun Tashkiliy qo‘mita tomonidan boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa.

36. OVI platformasi Yakuniy balni emas, balki faqat Jamoatchilik fikri balini avtomatik tarzda hisoblaydi. Yakuniy balni hisoblash va tasdiqlash Sog‘liqni saqlash vazirligi va Tashkiliy qo‘mita vakolatiga kiradi.

VI-bob. Tibbiyot xodimlarining reyting ballarini hisoblash

37. Ushbu Tanlovda ishtirok etishga ruxsat berilgan shifokorlar va o‘rta tibbiyot xodimlari qatnashishi mumkin.

38. Tegishli hisob-kitob davri uchun tibbiyot xodimining Jamoatchilik fikri bali ushbu tibbiyot xodimining tegishli davr uchun hisobga olingan barcha faol baholarining o‘rtacha arifmetik qiymati orqali aniqlanadi. Tibbiyot xodimining Yakuniy bali ushbu Tartibning 22- va 36-bandlarida nazarda tutilgan uch komponentli tartib bo‘yicha shakllantiriladi.

39. Tibbiyot xodimlarining reyting ballari teng bo‘lganda yuqoriroq o‘rin quyidagi ketma-ketlikda beriladi:

hisobga olingan ballar soni ko‘proq bo‘lgan tibbiyot xodimiga beriladi.

takroriy tenglik bo'lganda – yakunlangan tashriflardan keyin tasdiqlangan ballar soni ko'proq bo'lgan tibbiyot xodimiga;

40. Tanlov maqsadlari uchun tibbiyot xodimining Jamoatchilik fikri bali hisob-kitob davri uchun o'rtacha ball bo'yicha aniqlanadi. Baholar soni o'z-o'zidan o'rtacha reyting o'rnini bosmaydi va asosiy ko'rsatkichlar teng bo'lganda qo'shimcha reyting mezoni sifatida ishlatiladi. Yillik g'olib esa ushbu Jamoatchilik fikri bali asosida shakllantirilgan Qisqa ro'yxat bo'yicha ushbu Tartibning 22- va 36-bandlariga muvofiq hisoblangan Yakuniy ball bo'yicha aniqlanadi.

VII-bob. Davlat tibbiyot tashkilotlarining reyting ballarini hisoblash

41. Davlat tibbiyot tashkilotining tegishli hisob-kitob davri uchun Jamoatchilik fikri bali davlat tibbiyot tashkilotining tegishli davr uchun hisobga olingan barcha faol baholarining o'rtacha arifmetik qiymati asosida aniqlanadi. Davlat tibbiyot tashkilotining Yakuniy balli ushbu Tartibning 22- va 36-bandlariga muvofiq uch komponentli tartibda shakllantiriladi.

42. G'olibni aniqlashda ishtirok etish uchun davlat tibbiyot tashkiloti tegishli hisob-kitob davri uchun eng kam ballni to'plashi kerak.

43. Davlat tibbiyot tashkiloti uchun baholar sonining minimal chegarasi tasdiqlangan qoidalarga muvofiq tizimning konfiguratsiyasida belgilanadi.

44. Davlat tibbiyot tashkilotini baholashning Jamoatchilik fikri bali Tanlovning raqamli modelida belgilangan mezonlar bo'yicha shakllantiriladi.

45. Davlat tibbiyot tashkilotlarining reyting ballari teng bo'lganda yuqori o'rin hisobga olingan baholar soni ko'p bo'lgan tashkilotga beriladi.

VIII-bob. Rahbarlarning reyting ballarini hisoblash

46. Davlat tibbiyot tashkilotlari rahbarlari va sog'liqni saqlashni boshqarish organlari rahbarlari bevosita bemorlar tomonidan baholanmaydi.

47. Davlat tibbiyot tashkiloti rahbarining reyting bali quyidagilar asosida shakllantiriladi:

tegishli davlat tibbiyot tashkilotining o'rtacha reytingi;

tasdiqlangan profilga ega bo'lgan va tegishli hisob-kitob davrida baholashning minimal chegarasini bajargan mazkur tashkilot tibbiyot xodimlarining o'rtacha reytingi.

48. Davlat tibbiyot tashkiloti rahbarining yakuniy reyting bali ushbu Tartibning 47-bandida nazarda tutilgan ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik qiymati sifatida aniqlanadi.

49. Ushbu Tartibning 47-bandi maqsadlari uchun tashkilot tibbiyot xodimlarining o'rtacha reytingi ushbu tashkilotning tegishli davr uchun hisob-kitobda ishtirok etish talablariga javob beradigan barcha tibbiyot xodimlarining o'rtacha arifmetik reyting ballari asosida aniqlanadi.

50. Tuman (shahar) sogʻliqni saqlash organi va hududiy sogʻliqni saqlash organi rahbarlari uchun ham ularga idoraviy mansub boʻlgan tibbiyot tashkilotlari hamda ushbu tizimdagi tibbiyot xodimlari reytinglari asosida xuddi shunday hisob-kitob tartibi qoʻllaniladi.

51. Rahbarlarning yakuniy reyting ballari teng boʻlganda yuqori oʻrin ketma-ketlikda quyidagilarga beriladi:

tegishli tashkilot yoki idoraviy mansub tizim tibbiyot xodimlarining oʻrtacha reytingi yuqori boʻlgan rahbarga;

takroriy tenglik boʻlganda – tibbiyot tashkilotining yoki tashkilotlar majmuining baholari soni yuqori boʻlgan rahbarga;

keyingi tenglik boʻlganda – tegishli tashkilot yoki idoraviy mansub tizim tibbiyot xodimlarining umumiy baholari soni yuqori boʻlgan rahbarga.

IX-bob. Hisob-kitoblarning mintaqaviy va respublika darajalari

52. Tanlov gʻoliblarni aniqlashning hududiy va respublika darajasini nazarda tutadi.

53. Hududiy darajada gʻoliblar tegishli hududga hududiy mansubligi tasdiqlangan ishtirokchilar orasidan Oʻzbekiston Respublikasining har bir hududi boʻyicha alohida aniqlanadi.

54. Respublika darajasidagi gʻolib Oʻzbekiston Respublikasi miqyosidagi tegishli nominatsiyaning barcha ishtirokchilari orasidan aniqlanadi.

55. Ishtirokchini tegishli reytingga kiritish uchun toʻgʻri tasdiqlangan hududiy va tashkiliy mansublikning mavjudligi, agar bunday mansublik tegishli nominatsiya uchun ahamiyatga ega boʻlsa, majburiy hisoblanadi.

X-bob. Yillik hisob-kitob davri yakunlarini shakllantirish, taqdim etish va eʼlon qilish tartibi

56. Tanlov boʻyicha gʻoliblar faqat yillik hisob-kitob davri yakunlari boʻyicha aniqlanadi. Tanlov nominatsiyalari boʻyicha oylik (har oylik) gʻoliblar aniqlanmaydi va oylik natijalar tanlovning rasmiy natijasi sifatida eʼlon qilinmaydi.

57. Ushbu Tartibning III–IX-boblarida nazarda tutilgan baholarni hisobga olish, shu jumladan tashrifdan keyingi tasdiqlangan baholar va tashrifsiz oylik baholar tartibi oʻzgarishsiz qoladi. Foydalanuvchilarning oylik baholari yillik hisob-kitob davri uchun Jamoatchilik fikri ballini shakllantirishda toʻplanadigan maʼlumotlar manbai sifatida saqlanadi, biroq alohida oylik natija sifatida eʼlon qilinmaydi.

58. Yillik hisob-kitob davri yakunlari boʻyicha tizim:

tegishli yillik davr uchun barcha faol baholarni yigʻadi;

maʼlumotlarni tekshiradi;

ishtirok etishning minimal chegaralarini qoʻllaydi;

Jamoatchilik fikri ballarini hisoblaydi;

amaldagi nominatsiyalar bo'yicha reytinglarni shakllantiradi;

har bir nominatsiya va daraja (hududiy yoki respublika) bo'yicha Qisqa ro'yxatni aniqlaydi;

davr natijalarini saqlaydi;

davr yakunlarini qayd etadi.

59. G'oliblarni aniqlash mantig'i nominatsiya turiga bog'liq:

agar nominatsiya bo'yicha hududlar bo'yicha g'oliblarni aniqlash nazarda tutilgan bo'lsa, tizim Qisqa ro'yxatni va Yakuniy ballni har bir hudud bo'yicha alohida shakllantiradi;

agar nominatsiya bo'yicha respublika miqyosida bitta g'olib nazarda tutilgan bo'lsa, tizim O'zbekiston Respublikasi bo'yicha bitta Qisqa ro'yxatni shakllantiradi.

60. OVI platformasi har yili 1-noyabr holatiga ko'ra yillik hisob-kitob davri yakunlarini, jumladan har bir nominatsiya va daraja bo'yicha Jamoatchilik fikri ballarini va Qisqa ro'yxatlarni shakllantiradi hamda ularni Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etadi.

61. Sog'liqni saqlash vazirligi OVI platformasidan olingan Qisqa ro'yxatlar asosida ushbu Tartibning 27-bandida nazarda tutilgan tartibda Vazirlik balini shakllantiradi va Qisqa ro'yxatlarni tegishli tibbiy assotsiatsiyalarga yuboradi.

62. Tibbiy assotsiatsiyalar, Assotsiatsiya balini shakllantirib, Sog'liqni saqlash vazirligiga qaytaradi. Sog'liqni saqlash vazirligi uch komponentni ushbu Tartibning 24-bandida nazarda tutilgan formula bo'yicha jamlaydi va Yakuniy ballarni Tashkiliy qo'mitaga tasdiqlash uchun taqdim etadi.

63. Tashkiliy qo'mita tomonidan tasdiqlangan Yakuniy ballar asosida Sog'liqni saqlash vazirligi "Tibbiyot fidoyisi" respublika tanlovining yillik g'oliblarini barcha nominatsiyalar bo'yicha belgilaydi.

64. Sog'liqni saqlash vazirligi tasdiqlangan g'oliblar ro'yxatini o'zining rasmiy axborot resurslari, jumladan ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali e'lon qiladi.

65. Sog'liqni saqlash vazirligi tasdiqlangan g'oliblar ro'yxatini, shu jumladan har bir g'olib va nominant bo'yicha komponentlar kesimidagi ko'rsatkichlarni OVI platformasiga taqdim etadi.

66. OVI platformasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan taqdim etilgan natijalarni o'zida quyidagi tafsilotlar bilan e'lon qiladi:

ishtirokchining Jamoatchilik fikri bali;

ishtirokchiga nisbatan Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qo'yilgan Vazirlik bali;

ishtirokchiga nisbatan tegishli tibbiy assotsiatsiya tomonidan qo'yilgan Assotsiatsiya bali;

ushbu Tartibning 24-bandiga muvofiq hisoblangan Yakuniy ball;
ishtirokchining yillik g'olib maqomi (mavjud bo'lsa).

67. OVI platformasida natijalarni e'lon qilish Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida, ularni o'zgartirmagan holda amalga oshiriladi. OVI platformasi va Tanlov operatori Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan Yakuniy ballarni va g'oliblar ro'yxatini o'zgartirish huquqiga ega emas.

68. Ushbu bobda nazarda tutilgan tartib Tanlovning barcha nominatsiyalariga – shifokorlar, o'rta tibbiyot xodimlari, davlat tibbiyot tashkilotlari va rahbar xodimlarga, jumladan ushbu Tartibning XII-bobida nazarda tutilgan bosh milliy nominatsiyaga ham bir xilda qo'llaniladi.

XI-bob. G'oliblarni aniqlashning yillik sikli

69. Yillik g'oliblar yillik hisob-kitob davri yakunlari bo'yicha aniqlanadi.

70. Tanlov maqsadlari uchun yillik hisob-kitob davri Tashkiliy qo'mita tomonidan belgilanadi.

71. Yillik g'oliblarni aniqlashda ishtirokchining tegishli yillik hisob-kitob davrida hisobga olingan barcha faol baholari hisobga olinadi.

72. Ishtirokchining yillik Jamoatchilik fikri balli tegishli yillik hisob-kitob davridagi barcha faol baholarining o'rtacha arifmetik qiymati asosida aniqlanadi. Yillik g'olib esa ushbu Tartibning 22–36-bandlariga muvofiq hisoblangan Yakuniy ball bo'yicha aniqlanadi.

73. Yillik reyting ballari teng bo'lgan taqdirda yuqori o'rin tegishli yillik hisob-kitob davrida hisobga olingan ballari soni ko'p bo'lgan ishtirokchiga beriladi.

74. Tanlov bo'yicha har bir nominatsiya va daraja uchun yagona yillik hisob-kitob davri natijalari hamda yagona Yakuniy ball asosida bitta g'olib aniqlanadi. Tanlov doirasida boshqa, qo'shimcha oraliq yakunlar o'tkazilmaydi.

XII-bob. Cheklovlar, antifrod va hisob-kitobdan

ma'lumotlarni chiqarib tashlash

75. Tanlov natijalarining xolisligini ta'minlash maqsadida reyting ballarini hisoblashda quyidagilarni kiritishga yo'l qo'yilmaydi:

bir-birini takrorlovchi baholarni;

tanlov qoidalarini buzgan holda olingan baholarni;

insofsiz ta'sir ko'rsatish belgilari aniqlangan baholarni;

belgilangan texnik cheklovlarni buzgan holda qoldirilgan baholarni;

majburiy tekshirish tartib-taomillari tugallanmagan ma'lumotlarni.

76. Quyidagilar Tanlovning bazaviy cheklovlari hisoblanadi:

tugallangan bitta tashrif uchun bitta baho;
 faqat ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchi tomonidan baho qo'yish imkoniyati;
 foydalanuvchining telefon raqamini tasdiqlashning majburiyligi;
 tizimda antifrod-tekshiruvni qo'llash.

77. Antifrod-tekshiruv doirasida, jumladan, quyidagi belgilardan foydalanish mumkin:

bitta qurilmadan takroriy baholar;
 bitta IP-manzil yoki quyi tarmoqdan olingan baholarning g'ayritabiiy soni;
 o'xshash shablonlar bo'yicha hisoblarning ommaviy ro'yxatdan o'tishi;
 baholarning shubhali tezligi;
 qisqa vaqt ichida baholarning keskin ko'payishi.

78. Texnik tekshiruv maqsadlari uchun baholarga quyidagi maqomlar berilishi mumkin:

“active” – faol;
 “blocked” – bloklangan;
 “under_review” – tekshirilmoqda;
 “excluded_from_ranking” – reytingdan chiqarildi.

79. Hisob-kitobga faqat “active” maqomidagi baholar kiritiladi, agar tasdiqlangan texnik qoidalarda boshqacha hol to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilmagan bo'lsa.

80. Belgilangan tartibda tegishli qaror qabul qilingunga qadar “blocked”, “under_review” va “excluded_from_ranking” maqomiga ega bo'lgan baholar yakuniy reyting ballini shakllantirishda hisobga olinmaydi.

81. Ushbu Tartib buzilgan holda olingan ma'lumotlar aniqlangan taqdirda, bunday ma'lumotlar hisob-kitobdan chiqariladi va faqat shunday ma'lumotlarga asoslangan natijalar belgilangan tartibda qayta ko'rib chiqiladi.

XIII-bob. Davr natijalarini qayd etish va e'lon qilingan

natijalarning o'zgarmasligi

82. Har bir hisob-kitob davri tugagach, Tanlov natijalari tizimda qayd etilishi shart.

83. Davr natijalarini qayd etish quyidagilarni anglatadi:

Ma'lumotlar arxivlanishi: natijalarni hisoblashda foydalanilgan ma'lumotlar alohida raqamli ma'lumotlar to'plami (kesma) ko'rinishida saqlanadi;

G'oliblar qayd etilishi: tegishli davr g'oliblari alohida ro'yxatda rasmiylashtiriladi;

Natijalar o'zgarmasligi: hisobot davri yakunlangandan keyin qo'yilgan baholar e'lon qilingan natijalarga ta'sir ko'rsatmaydi va ularni o'zgartirmaydi.

84. Ma'lumotlar to'plami (kesma), hisob-kitoblar tarixini va davrlar natijalarini saqlash tartibi keyinchalik tekshirish va nazorat qilish imkoniyati bilan Tanlov operatori tomonidan ta'minlanadi.

XIV-bob. Hisob-kitoblarning to'g'riligini tekshirish

va natijalarni tasdiqlash

85. Reyting ballarini hisoblashning to'g'riligi quyidagilar bilan ta'minlanadi:

hisoblashning yagona algoritmlarini qo'llash;

ma'lumotlarga avtomatlashtirilgan ishlov berish;

Tanlov operatori tomonidan ichki texnik tekshiruv;

Tashkiliy qo'mita qaroriga ko'ra qo'shimcha tekshiruvni boshlash imkoniyati.

86. Tashkiliy qo'mita quyidagilar aniqlangan taqdirda hisob-kitoblarning to'g'riligini tekshirish tashabbusi bilan chiqishga haqli:

bahsli ko'rsatkichlar;

g'ayritabiiy ma'lumotlar;

texnik nomuvofiqliklar;

ishtirokchilarning murojaatlari.

87. Hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan natijalari Tashkiliy qo'mitaga ko'rib chiqish uchun beriladi.

88. Tashkiliy qo'mita tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan natijalar tanlovning rasmiy natijalari hisoblanadi.

89. Ushbu Tartib bilan tartibga solinmagan hollarda reyting ballari teng bo'lganda, Tashkiliy qo'mita qabul qilingan qarorni majburiy ravishda bayonnoma bilan rasmiylashtirgan holda ushbu Tartibga zid bo'lmagan qo'shimcha mezonlarni qo'llashga haqli.

XV-bob. Natijalarni e'lon qilish va aks ettirish

90. OVI platformasida quyidagilar aks ettirilishi mumkin:

ishtirokchining reytingi;

baholar soni;

minnatdorchiliklar soni;

reytingdagi o'zni;

ishtirok etish holati;

yillik tanlov g'olibi maqomi;

Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan taqdim etilgan natijalar bo'yicha:

Vazirlik bali, Assotsiatsiya bali va ushbu Tartibning 24-bandiga muvofiq hisoblangan Yakuniy ball;

natijalarni e'lon qilish qoidalarida nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlar.

91. Natijalarni e'lon qilish qoidalarini, ko'rsatiladigan ma'lumotlar hajmi va ularni joylashtirish muddatlari Tashkiliy qo'mita va Tanlov operatori tomonidan o'z vakolatlari doirasida va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga rioya qilgan holda belgilanadi.

XVI-bob. Yakunlovchi qoidalar

92. Mazkur Tartib Tanlovni o'tkazish to'g'risidagi buyrug'ining ajralmas qismi hisoblanadi.

93. Mazkur Tartibga o'zgartirish va qo'shimchalar Sog'liqni saqlash vazirligining buyrug'i bilan kiritiladi.

94. Ushbu Tartib bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, Tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibiga, shuningdek Tashkiliy qo'mitaning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlariga muvofiq hal etiladi.

YPR5183

YPR5183

YPR5183

YPR5183

YPR5183

**“Tibbiyot fidoyisi” respublika tanlovini
o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita
TARKIBI**

T/r	F.I.Sh		Lavozimi
1.	XUDAYKULOV Adham Yusupovich	–	Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari (Tashkiliy qo'mita raisi)
2.	OMONOV Olim Murodullayevich	–	Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari (Rais o'rinbosari)
3.	BASITXANOVA Elmira Irkinovna	–	Sog'liqni saqlash vaziri maslahatchisi (a'zo)
4.	RAHIMQULOV Farhod Abduraufovich	–	Sog'liqni saqlash vaziri kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi (a'zo)
5.	KARIMOV Mohir Ma'rifovich	–	Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti boshlig'i (a'zo)
6.	BURIYEV Xurshid Kosimovich	–	Inson resurslarini boshqarish departamenti boshlig'i (a'zo)
7.	<i>Lavozimi bo'yicha</i>	–	Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig'i (a'zo)
8.	ESHNAZAROV Nodir Tirkashevich	–	Raqamli texnologiyalarni joriy etish va sun'iy intellekt tizimlarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i (a'zo)
9.	SEKLER Dildora Erkinovna	–	“Toshkent shifokorlari” jamiyati asoschisi (a'zo)
10.	SHARIPOVA Nozima Xasanovna	–	Inson resurslarini boshqarish departamenti Kadrlarni tanlash, taqsimlash va zaxirani shakllantirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi - Tashkiliy qo'mita kotibi (ovoz berish huquqisiz)

Izohlar:

1. Tashkiliy qo'mita a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.
2. Tashkiliy qo'mita raisiga mazkur ro'yxatga tibbiyot muassasalarining soha bo'yicha mutaxassislarini hamda jamoatchilik vakillarini kiritish vakolati beriladi.

Sog'liqni saqlash vazirining
2026-yil _____ - _____-son
buyrug'iga
4-ilova

“Tibbiyot fidoyisi” respublika tanlovi tashkiliy qo‘mitasining faoliyat tartibi va vazifalari

1. Tashkiliy qo‘mita Tanlovni tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirish, nizoli vaziyatlarni ko‘rib chiqish va yakuniy natijalarni tasdiqlash vakolatiga ega bo‘lgan kollegial organ hisoblanadi.

2. Tashkiliy qo‘mita o‘z faoliyatida qonuniylik, xolislik, shaffoflik, kollegiallik, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik va shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligi tamoyillariga amal qiladi.

3. Tashkiliy qo‘mita Tanlovning texnik operatori funksiyalarini bajarmaydi va ballarni avtomatik hisoblash jarayoniga aralashmaydi, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

4. Quyidagilar Tashkiliy qo‘mitaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq tadbirlarni muvofiqlashtirish;

tanlov tartibotlarining ochiqligi, xolisligi va ijtimoiy ahamiyatini ta’minlash;

tanlovni o‘tkazish tartibi va g‘oliblarni aniqlash metodikasining bir xilda qo‘llanilishini nazorat qilish;

tanlov davomida yuzaga keladigan bahsli va nizoli vaziyatlar bo‘yicha yakuniy qarorlar qabul qilish;

tanlovning oraliq va yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish hamda tasdiqlash;

tanlov mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

5. Tashkiliy qo‘mita o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

O‘z ish reglamentini tasdiqlaydi;

tanlovning qo‘shimcha nominatsiyalarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 9-noyabrdagi PQ–336-son qarori talablariga zid bo‘lmagan tartibda tasdiqlaydi;

tanlov ishtirokchilarining murojaatlari va aniqlangan shubhali harakatlar bo‘yicha qo‘shimcha tekshiruv materiallarini o‘rganadi;

ma’lumotlarning ishonchliligi hamda hisob-kitob natijalarining haqqoniyligi yuzasidan taqdim etilgan materiallarni ko‘rib chiqadi;

tanlov operatori tomonidan taqdim etilgan antifrod va texnik hisobotlarni tahlil qiladi.

6. Tashkiliy qo‘mita quyidagi huquqlarga ega:

davlat organlari, xo‘jalik birlashmalari va boshqa tashkilotlardan Tanlov uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va hujjatlarni so‘rab olish;

tanlov operatori va mutasaddi shaxslarning axborotini eshitish;
zaruratga ko'ra qo'shimcha texnik va tashkiliy tekshiruvlar tayinlash;
natijalarni tasdiqlashni tekshiruv yakuniga qadar to'xtatib turish.

7. Tashkiliy qo'mita:

tizimning texnik algoritmlariga aralashishga;

tasdiqlangan metodikadan tashqari reyting ballarini hisoblash tartibini o'zgartirishga haqli emas.

8. Tashkiliy qo'mita faoliyati majlislar shaklida amalga oshiriladi. Majlislar bevosita yoki masofaviy (aralash) shaklda o'tkazilishi mumkin.

9. Majlis Tashkiliy qo'mita a'zolarining yarmidan ko'pi ishtirok etganda vakolatli (kvorumga ega) hisoblanadi.

10. Qarorlar oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lganda Tashkiliy qo'mita raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

11. Majlis qarorlari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va rais hamda kotib tomonidan imzolanadi.

12. Tashkiliy qo'mita a'zosi ko'rilyotgan masala yuzasidan shaxsiy manfaatdorlik mavjud bo'lganda, bu haqda raisga zudlik bilan (yozma yoki og'zaki shaklda) xabar berishi shart.

13. Manfaatlarga to'qnashuvi mavjud bo'lgan a'zo tegishli masala bo'yicha ovoz berish jarayonida ishtirok etmaydi, bu holat bayonnomada qayd etiladi.

14. Tashkiliy qo'mita faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

15. Ushbu Tartibga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

Sog'liqni saqlash vazirining
2026-yil _____ - _____ -son
buyrug'iga
5-ilova

**“Tibbiyot fidoyisi” respublika tanlovida ovoz berishda ishtirok etuvchi
tibbiy assotsiatsiyalar va kasbiy hamjamiyatlar
RO'YXATI**

T/r	Tibbiy assotsiatsiyalar va kasbiy hamjamiyatlar nomi *
1.	O'zbekiston vrachlar assotsiatsiyasi
2.	O'zbekiston valeologlar assotsiatsiyasi
3.	Onkologlar assotsiatsiyasi
4.	Markaziy Osiyo Pulmanologlari assotsiatsiyasi
5.	O'zbekiston dermatovenerologlar assotsiatsiyasi
6.	O'zbekiston flebologlari assotsiatsiyasi
7.	O'zbekiston hamshiralar assotsiatsiyasi
8.	O'zbekiston anesteziolog va reanimatologlar assotsiatsiyasi
9.	O'zbekiston stomatologlar assotsiatsiyasi
10.	O'zbekiston pediatriklarining assotsiatsiyasi
11.	O'zbekiston akusher-ginekologlari assotsiatsiyasi
12.	O'zbekiston endokrinologik va diabetik assotsiatsiyasi
13.	O'zbekiston kardiologlar assotsiatsiyasi
14.	O'zbekiston nevrologlar jamoat birlashmasi
15.	O'zbekiston gematologlari va transfuziologlari assotsiatsiyasi
16.	O'zbekiston shoshilinch tibbiy yordam vrachlari assotsiatsiyasi
17.	O'zbekiston terapevtlar assotsiatsiyasi
18.	O'zbekiston xususiy amaliyot vrachlarining assotsiatsiyasi
19.	O'zbekiston psixologlar assotsiatsiyasi
20.	O'zbekiston neyroxirurglar assotsiatsiyasi
21.	Sport tibbiyoti va reabilitatsiyasi milliy assotsiatsiyasi
22.	O'zbekiston Farmasevtlari assotsiatsiyasi
23.	O'zbekiston gepatologlari assotsiatsiyasi
24.	O'zbekiston psixiatriklar assotsiatsiyasi
25.	O'zbekiston oftalmologlar assotsiatsiyasi
26.	O'zbekiston otolaringologiya va bosh-bo'yin jarrohligi assotsiatsiyasi
27.	O'zbekiston reproduktiv meditsina assotsiatsiyasi
28.	O'zbekiston Intervension kardiologlar va rentgenendovaskulyar xirurglar assotsiatsiyasi
29.	O'zbekiston dermatoonkopatologiya, dermatoskopiya va kosmetologlar assotsiatsiyasi
30.	O'zbekiston travmatologiya-ortopediya assotsiatsiyasi

*Mazkur ro'yxatga o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i bilan kiritiladi.

*Vakolatli tibbiy assotsiatsiya o'zining huquqiy maqomi, joylashgan manzili va aloqa ma'lumotlarini Sog'liqni saqlash vazirligiga taqdim etishi hamda ulardagi o'zgarishlar to'g'risida vazirlikni o'z vaqtida xabardor qilib borishi shart.